

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

“Kiritildi”
O‘zDK rektori

2020 yil

“Kelishildi”
**O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi**

2020 yil

**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**5150502 – Dirijyorlik: opera-simfoniya dirijyorligi,
5150503 – Dirijyorlik: harbiy (damli) orkestr dirijyorligi,
5150504 – Dirijyorlik: xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorligi,
5150505 – Dirijyorlik: estrada orkestri dirijyorligi**

ta‘lim yo‘nalishlari uchun

Toshkent – 2020 yil

Kirish

Bakalavriat ta'lim bosqichiga kiruvchi abituriyentlar uchun tuzilgan mazkur dastur – bakalavriat ta'lim yo'nalishining

5150502 – Dirijyorlik: opera-simfoniya dirijyorligi,

5150503 – Dirijyorlik: harbiy (damli) orkestr dirijyorligi,

5150504 – Dirijyorlik: xalq cholg'ulari orkestri dirijyorligi,

5150505 – Dirijyorlik: estrada orkestri dirijyorligi

ixtisosliklari bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihonlarni olish uchun mo'ljallangan.

Fanning maqsadi va vazifalari

Barcha yo'nalishdagi ixtisoslik fanlari uchun tuzilgan mazkur umumiy dasturda qo'yilgan asosiy maqsad - barcha ixtisoslik sinflarida ijodiy (kasbiy) imtihonlarni qay yo'sinda olib borish va qanday uslublar bilan abituriyent bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash haqida tavsiflar beriladi. Abituriyentlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, aql zakovati hisobga olingan tarzda me'yoriy dasturni o'zlashtirish ustida ish olib boriladi.

“Dirijyorligi san'ati” fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Alohida e'tibor professional darajani mukammallashtirishga, ijrochilikning texnik rivojiga, artistik mahoratini rivojlantirish va yuqori badiiy saviyada tarbiyalashga qaratilishi kerak. Ixtisoslik fani yuzasidan talaba davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo'lgan, ya'ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog'onalari xususan, adabiyot va san'at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo'lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

5150502 – Dirijyorlik: opera-simfoniya dirijyorligi,

5150503 – Dirijyorlik: harbiy (damli) orkestr dirijyorligi,

5150504 – Dirijyorlik: xalq cholg'ulari orkestri dirijyorligi,

5150505 – Dirijyorlik: estrada orkestri dirijyorligi

mutaxassisligi bo'yicha o'qishga kirayotgan abituriyentlarni saralash maqsadida sinfda kirish talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko'zda tutilgan.

O'qishga kiruvchi 20 daqiqagacha bo'lgan vaqt mobaynida tayyorlangan asarga dirijyorlik qilib, 10 daqiqagacha bo'lgan vaqt mobaynida kollokvium topshirishi talab etiladi.

“Dirijyorlik” sohasi bo'yicha o'qishga kiruvchi quyidagi bo'limlardan iborat tanlovli imtihon topshiradi:

1. Mutaxassislik buyicha kirish imtihonlari quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

- Dasturni ijro etish
- Kollokvium

Dasturni ijro etish:

Kiruvchi bajarishi shart:

1 bosqich – dasturni ijro etish

Yirik shakldagi asarni fortepiano joʻrligida dirijyorlik qilib berish. Masalan: simfoniya bir – ikki qismi yoki operaning bir koʻrinishi, uvertyura va hokazo (10 daqiqadan kam boʻlmasligi lozim.)

2 bosqich -kollokvium

1. Eshitish qobiliyati tahlili: Forteplanoda ijro etilgan lad, interval, akkordlarni, I darajali qardosh modulyatsiyani va garmonik ketma-ketliklarni tinglab, aniqlash;
2. Imtixon qabul qiluvchi tomonidan tanlangan partituraga qarab, asar nomi,uning muallifi, va qaysi qismi ekanligini aniqlash;
3. Forteplanoda partituraning ijro etish koʻnikmasini namoyish etish;
4. Forteplanoda maxsus tayyorlagan biron bir asarni ijro etib berish.

Dirijyorlik kilish uchun asarlarning namunaviy roʻyxati:

1. Betxoven - Simfoniya №№ 1, 2, 5, 7(qismlardan biri); uvertyuralar: "Koriolan", "Egmont".
2. Borodin - Simfoniya № 2 (qismlardan biri); "Knyaz Igor" operasidan Uvertyura, sahnalar va Polovets raqslari.
3. Brams - Simfoniya №№ 1, 4 (qismlardan biri).
4. Vagner - "Rientzi"operasiga Uvertyura
5. Veber – operalarga uvertyuralar: "Oberon", "Evrianta", "Volныы strelok".
6. Gaydn - simfoniya (abituriyent xoxishi boʻyicha, qismlardan biri).
7. Glazunov - Simfonii №№ 1, 5, 6 (qismlardan biri); Torjestvennaya uvertyura.
8. Glinka - Simfonik orkestri uchun fantaziya “Kamarinskaya”, "Ruslan va Lyudmila", "Ivan Susanin" operalariga uvertyura va raqslar.
9. Kalinnikov - Simfoniya № 1 (qismlardan biri).
10. List – simfonik poemalar "Prelyudy", "Tasso".
11. Mendelson - Simfoniya № 3, № 4 (qismlardan biri); uvertyuralar "Fingalova pещera", "Ryui Blaz".
12. Motsart – simfoniya (abituriyent xoxishi boʻyicha, qismlardan biri), uvertyuralar.
13. Musorgskiy - "Xovanщina" operasiga Kirish ("Rassvet na Moskva-reke"), simfonik kartina “Noch na Лыsoy gore”
14. Myaskovskiy - Simfoniya № 27 (qismlardan biri).
15. Prokofev - Simfoniya № 7 (qismlardan biri).
16. Rimskiy-Korsakov - Ispan kaprichchiosi"Mayskaya noch", "Sarskaya nevesta" operalaridan parchalar;
17. Xachaturyan - "Spartak", "Gayane" baletlaridan syuitalar
- 18.Chaykovskiy - Simfonii №№ 1, 2, 5 (qismlardan biri), Torli orkestr uchun Serenada. ",Uvertyury-fantaziya "Romeo va Djuletta", "Gamlet",Simfonik fantaziya "Francheska da Rimini", “Oq qush koʻli”, “Щelkunchik”, “Uyqudagi goʻzal” baletlaridan syuitalar.
- 19.Shubert – Simfoniya №№ 4, 5, 8 (qismlardan biri).

Kollokvium

Abiturientning kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlab beruvchi savollar kiritilishi kerak:

- o'z mutaxassisligi bo'yicha adabiyotlarni, jumladan simfonik orkestri tarkibidagi cholg'ularning ijrochilik va transport imkoniyatlarini, musiqiy terminologiyani;

- musiqa o'rta maxsus o'quv yurti hajmida musiqa adabiyoti dasturini;

- orkestr partiturasini notadan o'qishni, va partituraning biron bir partiyani kuylab berishni;

- abiturient musiqaning turli yo'nalish va janrlarini, musiqiy shakl turlarini bilishi zarur.

Bulardan tashqari, kiruvchilar imtihonda ijro etilgan biron bir asarni mazmuni, uslubi va ijrochilik vositalarini taxlil qilib berishlari kerak.

Mutaxassislikdan kollokvium topshirish uchun kerak bo'lgan orkestr adabiyoti bo'yicha olinadigan bilimlarning adabiyotlari ro'yxatini bilishlari kerak.

Ijodiy imtihon abiturient tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

1. Dirijyorlik

№	Ijro talablari	To'liq javob uchun ball
1.	Qo'llar holati, dirijyorlik postanovkasi	10
2.	Auftaktlar	7,5
3.	Kaftlar xolati	7,5
4.	Asarning yodlanganligi	7,5
5.	Orkestr cholg'ulariga ko'rsatish	7,5
6.	Shtrix va dinamik belgilarning ishlatilishi	9,0
7.	Asarda muayyan badiiy obrazning gavdalanishi	7,5
8.	Manual texnika	7,5
9.	Eshitish qobiliyati	9,0
	Jami	73

2. Kollokvium

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	<u>Asarga oid savollar (ijro etilgan asar bo'yicha)</u>	3,0
2.	<u>Musiqa nazariyasi bo'yicha savollar</u>	3,0
3.	<u>Musiqiy cholg'ular bo'yicha savollar</u>	3,0
4.	<u>Musiqa adabiyoti bo'yicha savollar</u>	3,0
5.	<u>Partitura o'qish ko'nikmasi</u>	3,0
6.	<u>Asarning shakl nuqtai nazaridan tahlili</u>	4,0
7.	<u>Notadan o'qish ko'nikmasi</u>	4,0
	Jami	23

Ballarning bo‘linishi:

Dirjyorlik bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball - **73,0 ball**

Kollokvium bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball – **23,0 ball**

Jami 96 ball

“Garmoniya” fanidan

Fanning maqsadi va vazifalari

«Garmoniya» fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi- abiturientlarning “Garmoniya” fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko‘nikmalarining shakllanganligi, musiqiy asarlar tahlili jarayonida garmonik qonuniyatlarni qay darajada bila olishini aniqlashdan iborat. Garmoniya musiqa ijrochilarining maxsus nazariy bilim darajasini belgilaydi. Professional ijro ko‘nikmalari, tabiiy iste’dod, badiiy didning rivojlantirish bilan bir qatorda garmonik xususiyatlarni idrok etish, ijro paytida anglash qobiliyatlarini namoyon etishga hizmat qiladi. SHuningdek, musiqa muallifining asarida bayon etilgan badiiy g‘oyasining garmonik jihatlarini o‘zlashtirishga yordam beradi.

Abiturientlar oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- klassik garmoniyaning nazariy qonuniyatlarini bilish;
- nazariy bilimlarni fortepianoda ijro etish orqali namoyon etish;
- garmonik qonuniyatlariga asoslangan holda bir ovozli kuyga garmonik tuzilmalarni yaratish;
- muayyan misollar asosida garmonik tushunchalarini qo‘llash;
- garmoniyaning musiqiy tilning barcha tarkibiy qismlari bilan bog‘lay olish;
- musiqa asarining badiiy g‘oyasi va mazmunidan kelib chiqqan holda garmonik vositalarni tanlay olish.

Abiturient bilimiga qo‘yiladigan talablar

Abiturient “Garmoniya” fanidan o‘quv dasturi doirasida to‘laqonli bilimga ega bo‘lgan holda og‘zaki mashqlarni xatosiz bajarganda, garmonik qonuniyatlarni yechimini fortepianoda erkin namoyon etganda, taxlil jarayonida garmonik nazariy va amaliy ko‘nikmalarini namoyish qilganda, shuningdek, fan bo‘yicha bilimlari yuqori badiiy darajada bo‘lganida qo‘yiladi. Talabning garmonik eshitish qobiliyati, garmonik tuzilmalarni fortepianoda ijro etish mahoragi yorqin namoyon bo‘lishi kerak.

**Kasbiy (ijodiy) imtixonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish
quyidagi mezon asosida baholanadi:**

Og'zaki javob.

1. Musiqiy asarning garmoniya va shaklning tahlil qilish.
2. Fortepianoda:
 - a) to'rt ovozli bayonda berilgan garmonik ketma-ketlikni og'ishmalari bilan ijro etish;
 - b) berilgan tonallikda modulyatsiya ijro etish;
 - v) diatonik yoki xromatik sekvensiyalarni chalish.

**BAHOLASH MEZONI:
OG'ZAKI**

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Musiqiy asarning garmoniya va shaklning tahlil qilish.	21,0
2.	to'rt ovozli bayonda berilgan garmonik ketma-ketlikni og'ishmalari bilan ijro etish;	24,0
3.	berilgan tonallikda modulyatsiya ijro etish;	24,0
4.	diatonik yoki xromatik sekvensiyalarni chalish.	24,0
Jami		93,0

Garmoniya fani uchun qo'yiladigan maksimal – **93,0 ball**.

**Mazkur ta'lim yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami
qo'yiladigan maksimal ball – 189,0 ball.**

Ijodiy imtihonni o'tkazish tartibi

- 5150502 – Dirijyorlik: opera-simfoniya dirijyorligi,
- 5150503 – Dirijyorlik: harbiy (damli) orkestr dirijyorligi,
- 5150504 – Dirijyorlik: xalq cholg'ulari orkestri dirijyorligi,
- 5150505 – Dirijyorlik: estrada orkestri dirijyorligi

ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda va tartibda 1 akademik soat vaqt davomida ijodiy imtihon topshiradi. Ijodiy imtihon 9⁰⁰ da boshlanadi. Imtihonlar yakka tartibda belgilangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

Appelyatsiya tartibi

Abiturientlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtixon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abiturientlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.